

Hamkorlar

Kafedra professor-o'qituvchilari respublikamiz va chet eldagi bir qancha ilmiy markazlar bilan aloqalar o'rnatganlar. Jumladan, Isroil davlatidagi MASHAV International Agricultural Training Center xalqaro o'quv markazi, Moskva yer tuzish universiteti, Finlandiyaning JAMK universiteti, Latviya tabiiy fanlar va texnologiyalar universiteti, Litva Qishloq xo'jaligi akademiyasi, Qarshi muhandislik va iqtisodiyot instituti professor o'qituvchilari bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar va o'quv-uslubiy majmualar yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, "O'zdaverloyiha" Davlat Ilmiy Loyihalash Instituti, "Davlat kadastrlari palatasi" bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Hamkorlik natijasida talabalar ishlab chiqarish korxonalarida malakaviy va ishlab chiqarish amaliyotlarini o'taydilar, ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalar va doktorlik dissertatsiyalari tayyorlamoqda. Kafedra o'zining butun faoliyatini respublikamizning qator oliy o'quv yurtlaridagi soxaga yaqin kafedralar, davlat idoralari, yirik ilmiy loyihalash tashkilotlari bilan doimiy xamkorlikda olib bormoqda, negaki u chiqaruvchi kafedra sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti va tarmoqlarda resurslardan foydalanish barqarorligini ta'minlovchi "Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar, tayyorlamoqda. Xususan, bu ta'lim yo'nalishiga 2020-yildan qabul boshlandi hamda 2023/2024 o'quv yilida kafedrada 47 nafar "Kadastr" ta'lim yo'nalishida bakalavrlari bitiradilar. Kafedrada umumiy hisobda 150 dan ortiq bakalavrlar tayyorlanmoqda. Yuqorida keltirilgan kadrlarni tayyorlashda biz bilan kadrlar buyurtmachilari, "Kadastr agentligi" va uning viloyatlardagi boshqarmalari, Davlat kadastrlari palatasi, uning viloyat boshqarmalari va tuman bo'limlari, "O'zdaverloyiha" Davlat ilmiy loyihalash instituti hamda filiallari bilan doimiy xamkorlik qilib kelinmoqda. Kafedrani bitirgan talabalar mehnat faoliyatini aynan mazkur tashkilotlarda yuritishlari nazarda tutilgan. "Kadastr (faoliyat turlari bo'yicha)" ta'lim yo'nalishining yuqori bosqich talabalari o'zlarining ishlab chiqarish va bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyotlarini aynan ushbu korxonalarda o'tashadi. Bu borada ular bilan tegishli shartnomalar kelishilgan. Bulardan tashqari qator talabalar ishlab chiqarishda malakalarini oshirish istagida darslardan bo'sh vaqtlarida mazkur tashkilotlarda ish o'rganmoqdalar. Bundan tashqari, kafedraning professor-o'qituvchilari o'zlarining amaliy malakalarini oshirib borishlari uchun 1 yoki 2 xaftalik stajirovkalar sifatida ushbu korxonalariga doimiy tashrif buyurib turishadi, ishlab chiqarishda bajarilayotgan ishlar bilan doimiy tanishib borishadi. Buning uchun kafedra va "Kadastr agentligi", Davlat kadastrlari palatasi, shuningdek va "O'zdaverloyiha" Davlat ilmiy loyihalash institutlari bilan 5 yillik o'zaro xamkorlik shartnomalarini imzolangan. Kafedrani xorijiy mamlakatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan ham xamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Kafedrani Qarshi iqtisodiyot muxandislik institutining soha bo'yicha kafedrasini bilan, Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti sohaga oid kafedralari bilan ham hamkorlik aloqalari mavjud.

Kafedrani xamkorlik aloqalari

T.r.	Hamkor tashkilotlar	Hamkorlik mohiyati
1.	Moskva davlat yer tuzish universiteti	Professor o'qituvchilar stajirovkasi, malaka oshirish, ilmiy kadrlar tayyorlash
1	Obuda universiteti (Vengriya)	Tayanch doktorantura, stajirovka, malaka oshirish
3	Avstriyaning Zalsburg Universiteti (Avstriya)	Magistratura, magistrantlar stajirovkasi, malaka oshirish
4	"Uzdaverloyiha" DILI	Ishlab chiqarish amaliyoti, bitiruv ishi oldi amaliyoti, birgalikda ITI bajarish
5	Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi	Ishlab chiqarish amaliyoti, bitiruv ishi oldi amaliyoti, birgalikda ITI bajarish

6 Davlat kadastrlari palatasi Ishlab chiqarish amaliyoti, bitiruv ishi oldi amaliyoti,
birgalikda ITI bajarish